


QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2022- yil 1- mart holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1-mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar - fevral oylarida)








Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **14,8** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish
 ■ O‘rmon xo‘jaligi
 ■ Baliq xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,3 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



292

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

4 412

Ishlab chiqarish sanoati

32

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

59

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 4 795 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,3 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 12,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,0 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 12,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 6,1 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 10,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,7 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 3,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,2 %) oshdi.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **0,3** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




0,1 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




5,3 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar



29,4 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 392 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 1,0 % kamaygan (jami qurilishdagi ulushi 66,4 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 1,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 8,5 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 12,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 25,0 %) oshdi.


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 10 240 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 25,3 % ga oshdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 29,9 % ga (jami savdodagi ulushi 72,3 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 9,0 ga (jami savdodagi ulushi 19,8 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 32,2 % ga (jami savdodagi ulushi 7,9 %) oshdi.




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar








Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar

Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar


Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

745



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

21



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

15



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



125

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 640


Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2022- yil 1-mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 765 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,1 % ga oshdi.


Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 17,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,9 %), yashash bo'yicha xizmatlar 42,0 % ga oshgan (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,1 %) o'sishi ko'zatilmoqda.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofimlar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **21,7** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




26,4 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




1,6 martaga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




13,2 foizga oshdi





Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,9** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




2,3 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




4,9 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni





Xususiy korxonalar





Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra 4 651 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 664 taga yoki 1,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 329 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 475 taga yoki 1,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 163 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 468 taga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra 17 794 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 959 taga yoki 19,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 17 117 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 675 taga yoki 18,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- fevral oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 577 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 726 taga kamayganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- mart holatiga ko'ra 240 tani tashkil etib, ulardan 233 tasi yoki 97,1 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 15 taga yoki 6,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- fevral oylarida viloyatimizda xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilmagan.

Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	55	101	199	220	233
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3	12	32	40	47
Sanoat	37	57	106	112	109
Qurilish	2	5	10	10	13
Savdo	9	15	26	32	36
Tashish va saqlash	1	2	4	5	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	4	10	8	9
Axborot va aloqa	1	1	3	1	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	3	4	6
Boshqa turlar	2	5	5	8	8

Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonona	Xorijiy korxonona
Qashqadaryo viloyati	233	157	76
G'uzor	11	8	3
Dehqonobod	15	11	4
Qamashi	13	9	4
Qarshi	16	10	6
Koson	22	12	10
Kitob	17	11	6
Mirishkor	7	5	2
Muborak	9	5	4
Nishon	17	13	4
Kasbi	6	3	3
Chiroqchi	13	11	2
Shahrisabz	6	3	3
Yakkabog'	15	9	6
Qarshi sh.	59	44	15
Shahrisabz sh.	7	3	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahrida 59 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 25,3 %), Koson 22 ta (9,4 %), Kitob 17 ta (7,3 %), Nishon 17 ta (7,3 %), Qarshi 16 ta (6,9 %), Dehqonobod 15 ta (6,4 %), Yakkabog' 15 ta (6,4 %) va Qamashi tumanlarida 13 ta (5,6 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)




2022-yil 1-mart holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Qarshi shahri (19,6 %), Chiroqchi (8,3 %), Koson (7,8 %), Qarshi (7,3 %), Kitob (7,1 %), Qamashi (6,8 %), Yakkabog' (6,8 %), Shahrisabz shahri (5,5 %), G'uzor (5,1 %), Shahrisabz (4,9 %), Dehqonobod (4,6 %), Kasbi (4,5 %), Nishon (4,4 %), Mirishkor (3,9 %) va Muborak (3,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022-yil yanvar-fevral oylarida, birlikda)

2022-yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Qarshi shahrida (16,2 %), Chiroqchi (9,9 %), Koson (9,0 %), Qarshi (8,2 %), Dehqonobod (7,3 %), Qamashi (7,1 %), Yakkabog' (6,7 %), G'uzor (6,3 %), Kitob (6,2 %), Mirishkor (5,8 %), Kasbi (4,4 %), Shahrisabz shahri (4,2 %), Shahrisabz (3,5 %), Nishon (3,5 %) va Muborak (2,1 %) tumanlari ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Qarshi shahrida (23,7 %), Koson (10,8 %), Qamashi (8,4 %), Chiroqchi (7,6 %), Yakkabog' (7,2 %), Qarshi (6,1 %), Kasbi (5,5 %), Mirishkor (5,0 %), Kitob (4,9 %), Nishon (4,4 %), Muborak (4,1 %), G'uzor (4,1 %), Shahrisabz shahri (3,8 %), Shahrisabz (3,1 %) va Dehqonobod (1,6 %) tumanlari hissalariga tegishli.


Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi

(2022-yil 1-mart holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2022- yilning yanvar-fevral oylarida, birlikda)




2022- yilning yanvar-fevral oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Qarshi tumani (19,0 %), G'uzor (16,6 %), Chiroqchi (11,7 %), Dehqonobod (9,8 %), Qarshi shahri (8,6 %), Koson (6,7 %), Shahrisabz (4,9 %), Mirishkor (4,9 %), Kitob (4,3 %), Shahrisabz shahri (3,7 %), Qamashi (3,7 %), Muborak (3,1 %), Yakkabog' (1,8 %), Kasbi (0,6 %) va Nishon (0,6 %) tumanlari hissalari ta'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yilning yanvar-fevral oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da




Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining www.qashstat.uz rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:(75) 221-17-93